

<b>Tashkilot nomi:</b>	Respublika sud ekspertiza markazi
<b>Tarkibiy bo‘linma:</b>	Sud ballistika va izshunoslik laboratoriyasi
<b>Tanlov bosqichi:</b>	Suhbat
<b>Savol yo‘nalishi:</b>	Lavozim kasb faoliyatiga oid (1-50 ta savol)

1. Qo‘lbola usulda yasalgan sochma o‘qlarning qanday turlari mavjud?
2. “Sechka” sochma o‘qi qanday tayyorlanadi?
3. «Katanka» sochma o‘qi qanday tayyorlanadi?
4. Silliq stvolli ov miltiqlari yaxlit o‘qlari tuzilishi va shakliga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
5. Sferik shakldagi, o‘qni havodagi harakatini yo‘naltirishga mo‘ljallangan qismlari bo‘lmagan o‘qlar nima deb ataladi?
6. Stabilizator dumchasiga ega va og‘irlik markazining o‘qning bosh qismiga ko‘chirilgan o‘qlar nima deb ataladi?
7. Silliq stvolli o‘qotar qurollardan otiladigan sochma o‘qlar va kartechni bir patronga mo‘ljallangan miqdori nima deb ataladi?
8. Silliq stvolli o‘qotar qurollardan otiladigan bir dona o‘q nima deb ataladi?
9. Lotincha «identificare» so‘zidan kelib chiqqan va odam, buyum va h.k.ni aynanligini aniqlash atamasi kriminalistikada nima deb ataladi?
10. Sudga oid isbot va dalillarni olish maqsadida, tasvirlari bo‘yicha moddiy obektlarni aynanligini aniqlashning umumiy prinsiplari haqidagi ta‘limot nima?
11. Identifikatsiya uchun foydalaniladigan belgilar nima deb ataladi?
12. Umumiy va xususiy identifikatsion belgilarning obektning alohidaligi, uning betakrorligini ifodalovchi yig‘indisi nima deb ataladi?
13. Umumiy va xususiy identifikatsion belgilarning obektning alohidaligi, uning betakrorligini ifodalovchi yig‘indisining obektda joylashgan sohasi nima deb ataladi?
14. Bir jinsli obektlarning shakli, hajmi, og‘irligi, navi va sinfiga ko‘ra umumiy tabiati, xossalari ifodalaydigan xususiyatlar nima deb ataladi?
15. Silliq stvolli o‘qotar qurolni snaryadlardagi izlarga ko‘ra identifikatsiya qilishda taqqoslash tadqiqotlari?
16. Qurol stvoli kanalida o‘qning kontaktli harakati natijasida, o‘qning sirtida qanday izlar hosil bo‘ladi?
17. Gilzalarda boyok atrofida akslar ko‘rinishida izlar nima deb ataladi?
18. O‘qotar qurolning otilgan gilzalardagi izlarga ko‘ra identifikatsiya qilishda eksperimentning asosiy maqsadi nima?
19. O‘q otilishida patron va qurol stvoli kanalining ichida sodir bo‘ladigan jarayonlarni ballistikaning qaysi bo‘limi o‘rganadi?
20. Otilgan snaryadning qurol stvoli kanalidan chiqib to‘siq (nishon, obekt) bilan birlamchi uchrashishigacha bo‘lgan harakatlari ballistikaning qaysi bo‘limida o‘rganiladi?
21. O‘qotar qurolning jangovar xossalari o‘qning dinamik belgilarni aytib bering?
22. O‘qotar qurolni otish uchun yaroqliligini aniqlash maqsadida eksperiment

qanday o‘tkaziladi?

23. Gilzaning shakli qanday aniqlanadi?

24. O‘qning gilzaga maxkamlanish usuli qanday aniqlanadi?

25. Otilgan snaryadning boshlang‘ich tezligi va solishtirma kinetik energiyasini aniqlash uchun mo‘ljallangan maxsus qurilma bo‘lmagan hollarda, snaryadning shikast yetkazuvchi kuchi qanday aniqlanadi?

26. Silliq stvolli miltiqlar iz hosil qiluvchi qismlariga ko‘ra qanday turlari mavjud?

27. O‘q otilishi nima?

28. Qurol stvoli kanali kalibridan katta kalibrdagi patronlar bilan otishdan qoladigan izlar?

29. Otilgan gilzalarda iz hosil bo‘lish jarayonida qo‘l o‘qotar qurolning qanday mexanizmlar ishtirok etadi?

30. Qurolidan o‘q otilishida to‘siqqa nimalar mexanik ta’siri ko‘rsatadi?

31. O‘q otilishida to‘siqda shikastlanish kanali bilan tutashgan kirish va chiqish teshiklari bo‘ladigan shikastlanish nima deb ataladi?

32. Yopiq shikastlanishning xususiyatlarini ayting?

33. Tegib o‘tuvchi jarohatlar snaryadning ..... natijasi hisoblanadi va bu holda o‘q to‘siqni teshib kirmaydi, balki tegib o‘tadi.

34. To‘siqdagi jarohat sohasida obektning otilgan snaryad tomonidan yulib ketilgan muayyan bir qismining yetishmasligi nima deb ataladi?

35. O‘q otilishida nimalar to‘siqqa termik ta’sir ko‘rsatadi?

36. Sud ballistikasida o‘q otilishning qanday turlari ajratib ko‘rsatiladi?

37. Kurol stvoli og‘zining shikastlanayotgan obekt sirtiga tegib turgan holatdagi otilishi nima deb ataladi?

38. Qurolni to‘siq sirtiga taqab o‘q otilishida to‘siqda hosil bo‘ladigan qurol stvoli og‘zining aksi nima deb ataladi?

39. Kirish teshigi atrofida qurol stvoli og‘zida yuz beradigan hodisalar ta’sirining izlari kuzatiladigan o‘q otilishi qanday otilish?

40. Uzoq masofadan o‘q otilishi nima?

41. Patronning snaryad, porox zaryadi va yondiruvchi kapsyullarni o‘zaro birlashtiruvchi va ularni tashqi ta’sirlardan saqlovchi, patronning patrondonda joylashishini hamda o‘q otilishida porox gazlarining siqilib ishlashini ta’minlovchi qismi nima deb ataladi?

42. Shakliga ko‘ra gilzalar qanday turlarga bo‘linadi?

43. Patronning qurol stvoli kanalidan uloqtirib yuborilayotgan shikastlovchi elementi nima deb ataladi?

44. Buyumni o‘qotar qurol deb aytish uchun zarur bo‘lgan mezonlarni aytib bering?

45. O‘qotar qurolning ta’rifi?

46. Sport kurollari kanaka kurol?

47. 75% maydalangan kaliyli selitra, 15% yog‘och ko‘mir va 10% oltingugurtning mexanik aralashmasidan iborat bo‘lgan, yonganida ko‘p miqdorda tutun hosil qiladigan, portlovchi modda nima deb ataladi?

48. Asosiy tarkibi birorta organik eritmada qayta ishlangan nitrotsellyulozadan iborat portlovchi modda nima deb ataladi?

**49. Porox zaryadi kamroq, snaryadsiz yoki o‘qining materiali karton, plastmassa va h.k. bo‘lgan patron nima deb ataladi?**

**50. O‘qotar qurollar tuzilish xususiyatlariga ko‘ra qanday qurollarga bo‘linadi?**